

NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA PSIXOLOGIZM

Qosimov Mirjalol,

SamDU 2-kurs magistri

Annatsiya: Badiiy psixologizm muammosining o'rganilish tarixi, badiiy asarlardagi ifodasi haqida so'z boradi. Nazar Eshonqulning hikoya va qissalaridagi qahramonlar ruhiyatining badiiy talqiniga diqqat qilingan.

Kalit so'zlar: xarakter, psixologizm, ruhiyat, talqin, mahorat.

Mustaqillik sharofati ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilanish jarayonini boshlab berdi. Ma'naviy madaniyatning qudratli to'lqinlarini ochish, xalqimizga milliy, ma'naviy, adabiy, diniy qadriyatlarni qayta tiklash imkoniyatini tuhfa etdi. Bu pirovard evrilishlar oxir-oqibatda milliy adabiy-estetik tafakkur madaniyatini jiddiy o'zgartirib yubordi. Eng asosiysi, nisbatan qisqa fursat ichida fikrlash rang-barangligi shakllandi. O'zbek nasri umumadabiyotimizning ajralmas tarkibiy qismidir. Yangicha milliy-adabiy tafakkur, realistik nasr rivoji XX asr boshlarida qalam tebratgan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa ijodkorlarga borib taqaladi. Ular yangi davr adabiyotida Yevropa adabiyoti mezoni bilan o'lchaganda ham to'laqonli asarlar yaratdilar, realistik yo'nalishga xos xususiyatlarni ijodiy o'zlashtirdilar. Ijodda haqqoniylik, hayotiylik va milliy tamoyillari kuchaydi. 20-30-yillar o'zbek adabiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy adabiy tizimda realizm shakllanishi va taraqqiyoti izchil mantiqiy rivojlanish, adabiy-estetik tafakkur murakkablashib borishining muayyan hosilasidir. Aynan, shunday jiddiy evrilishlar natijasida modernizm adabiyoti ham bo'y ko'rsata boshladi. Chunki, jahon adabiyoti va ma'naviyati ta'sirida rivojlangan adabiyot xilma-xil shakllarga evirildi. Shubhasiz bu jarayonda faol qalam tebratayotgan Nazar Eshonqul ijodi fikrimizning yorqin dalilidir. XX asrning oxirgi yillari istiqloq adabiyoti deb

atalmish estetik hodisani yuzaga chiqardi. Aslida, milliy adabiyotning 90-yillarida bo'y ko'rsatgan yetakchi poetik xususiyatlarning ayrim belgilari 60-yillardayoq ko'zga tashlanib, 80-yillarning adog'ida to'liq barqarorlashgan edi. Biroq davr adabiyotiga xos belgilar 90-yillarning o'rtalaridagina muayyan tizim tamoyiliga kirdi. Ayni paytda, istiqlol davri adabiyoti, xususan, o'zbek nasri ko'p asrlik milliy prozaning mantiqiy davomi va merosxo'ridir. Binobarin, u oddiy xronologik bosqich bo'lmay, jiddiy o'zgara boshlagan milliy-badiiy ongning, yangilanayotgan estetik tafakkurning hosilasi hamdir. U yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulayozgan dunyoni har xil va erkin anglash, izohlash hamda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgan millat ijodiy dahosining samarasi sifatida maydonga keldi. Adabiyotning hukmron mafkura tazyiqidan xalos bo'lishi olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga turli rakurslarda qarash va ifodalash imkoniyatlarini kengaytirdi. Millat kishisining ruhiyati, hissiyoti, ko'ngli butun murakkabliklari bilan badiiy tadqiq etila boshlandi. Badiiy adabiyot qahramonlari o'zining murakkab taqdiri, teran o'y-mulohazalari, nozik kechinmalari bilan o'ziga xos tabiatga ega bo'la boshladi. Bugungi adabiyotni jo'ngina izohlash, tushuntirish yoxud ilmiy qoliplarga solish mumkin bo'lmay qoldi. Bularning barchasi tasvir predmetining rang-baranglikdagi uslubiy izlanishlar chuqurlashuvi, kengayishi va boyishi natijasidir. Alohida ijodkorga taalluqli bo'lgan badiiy mantiq individual teran sezimlar va moddiylashtirilgan murakkab kechinmalar bag'ridan sizib chiqishi anglab yetildi. Ilgari bosqichlarga nisbatan rang-baranglikning quyuqlashishi inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirishdagi miqyos va nisbatlar, ifoda tarzidagi dadil izlanishlar favqulodda uslubiy boylikni yuzaga keltirdi. Inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati-adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi sifat darajasiga ko'tarilishi birdan yuz bergani yo'q. Adabiyotning turli rivojlanish bosqichlarida bu muammo turlicha tushunilgan. Agar ijodiy metodlar va ularning estetikasi nuqtai nazaridan psixologizm muammosiga yondoshsak, bu masalaning zamon va davr talabiga muvofiq yanada realroq, yanada qabariqroq bo'lib

borganligining guvohi bo'lamiz. Xuddi shunday jarayonni adabiyotshunoslardan N.Shodiyevning "Abdulla Qahhorning psixologik tahlil mahorati" ("Sarob", "Sinchalak" asarlari misolida) va M.Abdurahmonovanning "Abdulla Qodiriy ijodida psixologik tahlil mahorati" nomli nomzodlik dissertatsiyalari mag'zini aks ettiruvchi risolalar e'lon qilganliklarida kuzatish mumkin bo'ladi. Bu risolalar bevosita xarakterlar ruhiy dunyosini ochish mahoratiga bag'ishlangan "qaldirg'och" tadqiqotlar bo'lib, birinchisida Abdulla Qahhorning ikki nasriy ("Sarob" va "Sinchalak") asaridagi psixologik vositalar – ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, hislarning tashqi ekspressiyasi, gallyutsinatsiya, tush va psixologik timsollar tahlil etiladi. Shu vositalar tahlili orqali adibning psixologik tahlil mahorati sirlari tekshiriladi. Ikkinchi risolada esa, o'zbek romanchiligidagi psixologizmning asoschisi Abdulla Qodiriy ijodi va uning psixologik tasvir mahorati o'rganilgan. Hozirgi adabiy jarayonda, jumladan, modernistik ruhda yozilayotgan asarlarimizning aksariyatini analitik prinsipda tahlil qilmoq maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu prinsipda "voqealar tafsiloti"ning tasviriga nisbatan "his-tuyg'ular tafsiloti" tasviri birinchi planga chiqadi. Qahramonning ruhiy jarayoni, bu jarayonning betinim o'zgaruvchanligi, fikrlar, hislar va kecinmalarning rivoji va oquvchanligi keng tahlil etiladi. Yozuvchi N.Ehonqulning biz ko'rib o'tmoqchi bo'layotgan "Tun panjaralari" qissasi yuqorida bildirilgan fikrlarga yanada oydinlik kiritadi. Adibning "Tun panjaralari" qissasida muayyan bir qiziq voqea hodisaning badiiy talqiniga bag'shlangan emas, unga biz o'rganib qolgan an'anaviy obrazlar, qiziqarli syujet, tasvirlar, manzaralar, dialoglar ko'zga tashlanmaydi. U monolog qissa. Unda ruhiy tushkinlik, o'ychan mushohadalar, ba'zan esa jo'shqinlik, ismsiz iztiroblar ko'zga tashlanadi. "Mana tun.Tunga mening boshqallarnikiga o'xshamaydigan umrim boshlanadi. Tunda men o'tgan kunlarim va kelajagim bilan uchrashaman: ular xuddi so' nayotgan yulduzlarday ko'z oldimdan bir-bir uchib o'tadi" [1, 163-bet].

Asar qahramoni tunda o'z ko'ngli, o'z qalbi bilan yolg'iz qolishi bejiz emas. Sababi "Teran o'ylaydigan shaxs tanholikda intiladi. Chunki uning o'zi va ko'ngli bilan qiladigan ishi bor. O'ysiz individ uchun esa, yolg'zlikdan katta fojia yo'q".

Qahramon tunga murojat qilishi yoxud tunni sevishi bejis emas. Tun sokin bo'ladi. Shovqin suron ortga chekingan, hamma g'aflat uyqusida. Tunda xohlagancha o'y xayollar-ga berilishi mumkin. Ammo bu yerda boshqa bir ramziy ifoda bilan ruhiyat uyg'unligi mavjud. Tun cheksizdir. Unda istagancha sayr qilish, o'tmish va kelajak haqida mushohada yuritish mumkin. Qahramonning ko'ngli ham qalbi ham tunday zulmat ichida qolgan. Undan chiqishga harakat qilgani sari panjaralar unga xalaqit qiladi. "Men bolalik olmasining aynigan, buzilgan tomoniman. Olmani yeyishar ekan, odamlar chirigan joyini kesib tashlaydi. Agar endi men yana kimgadir yarashimni his qilganimda ham bu umr olmasining chirigan qismini kesib tashlashim kerak" [1,163-bet]. Odamzod borki bolalik chog'larini eslab ruhi taskin topadi. Yuzida jilmayish sodir bo'ladi. Ayrim fojiali kunlarni eslashni xohlamaydi. Asar qahramoni esa umuman, o'tmishini eslashini xohlamaydi. O'z o'tmishini quvragan deb ataydi. Chunki u usha paytdan baxtsizlik upqoniga g'arq bo'layotgandi. Uni u yerdan olib chiqadigan, unga mana baxting deb ko'rsatadigan ma'naviy kuch yo'q edi.

Adabiyotlar:

- 1.Eshonqul Nazar. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. – Toshkent, 2008, - 240 bet.
- 2.Yo'ldoshev Q. Anglashning azobli yo'li // Guliston. 2005. 1-son, 22-bet.
- 3.Nasirov Azimidin Normamatovich. Features of symbolic interpretation. international journal on orange technologies. Tom 3. 71-76. 2021.
- 4.Nasirov Azimidin Normamatovich. Novel thinking and artistic conflict in shoyim butayev's novels. european journal of molecular & clinical medicine. 7(3). 2020.
- 5.Nasirov Azimidin Normamatovich. Stylistic units and compositional impartiality. theoretical & applied science. 12 (586-571). 2019.